O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

**Tasdiqlayman:**

Rektor __________ I.Tuxtasinov

2025-yil "___" __________

**Ro'yxatga olindi:**

*BD60230100-YOST2304*

2025-yil "4" iyun

# YOZMA NUTQNI TAKOMILLASHTIRISH FANINING O'QUV DASTURI

(2-kurs)

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – | San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 | – | Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230100 | – | Filologiya va tillarni o'qitish (yapon tili) |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | Kreditlar |
|---|---|---|---|
| YOZT2304 | 2025-2026 | 3 | 4 |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Tanlov | Yapon | | 4 |

| Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|
| Yozma nutqni takomillashtirish (yapon tili) | 48 | 72 | 120 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

**Fanning maqsadi:**

Yozma nutqni takomillashtirish" fanining asosiy maqsadi – talabalarni yapon tilida to'g'ri, ravon va uslubiy jihatdan boy yozma nutq yaratishga o'rgatish, yozuvda grammatik me'yorlarga amal qilish, turli janr va uslublarda matn tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Fan yapon tilida yozish madaniyatini chuqur o'rganish, fikrni aniq ifodalash, uslubiy moslikni saqlash hamda ijodiy yozuv malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi

**Fan vazifalari:**

1. Yapon tilining yozuv tizimlari va grammatika qoidalarini mustahkamlash.
2. Gaplarni sodda shakldan murakkab strukturalarga o'tkazish ko'nikmasini rivojlantirish.
3. Yapon yozma uslubida rasmiy va norasmiy janrlarni farqlash va qo'llashni o'rgatish.
4. Matnlarni tuzish, tahlil qilish, tahrirlash va boyitish malakasini shakllantirish.
5. Yapon tili madaniyatiga mos yozma nutq uslubini rivojlantirish.
6. Ijodiy yozish (hikoya, tasvir, esse) orqali til boyligini kengaytirish.
7. Akademik yozma nutq (referat, qisqa ilmiy maqola, esse) asoslarini o'rgatish.
8. Mustaqil yozma topshiriqlar orqali o'zini baholash va yozma ko'nikmalarni mustahkamlash.

**Xorij tajribasiga muvofiqligi**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOP-300 talik ro'yxatga kiruvchi Tsukuba university ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi.

https://www.tsukuba.ac.jp/en/academics/ug-courses-openclass/

**II. Asosiy qism (Amaliy mashg'ulotlar)**

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**



mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

**5.** **Asosiy adabiyotlar**

アカデミックジャパニーズ研究会「大学、大学院留学生の日本語②作文集」アルク、2019

**Qo'shimcha adabiyotlar**

みんなの日本語編集委員会. みんなの日本語 初級II 書いてみよう作文編. スリーエーネットワーク, 2020.

**Axborot manbalari**

https://www.jpf.go.jp
https://www.tofugu.com
https://www.nhk.or.jp/lesson

**7.** O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil 4-iyun dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (10-sonli bayonnoma).

**8.** **Fan/modul uchun mas'ullar:**

Hamidova N. – O'zDJTU, "Yapon filologiyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.
M.Ibragimova - O'zDJTU, "Yapon filologiyasi" kafedrasi dotsenti

**9.** **Taqrizchilar:**

N. T. Xalmurzaeva– ToshDSHU, "Yapon filologiyasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
M. M. Ibragimova – O'zDJTU, "Yapon filologiyasi" kafedrasi dotsenti

Sharq filologiyasi fakulteti dekani ____________ D.Djurayev

Yapon filologiyasi kafedrasi mudiri ____________ N.Hamidova

Universitet axborot resurs markazi direktori ____________ S.Kayumova

| | |
|---|---|
| 4. | **V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruh, mikroguruh bo'lib ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tog'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.<br>Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.<br>**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**<br>**5 (a'lo) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.<br>**4 (yaxshi) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.<br>**3 (qoniqarli) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushncha va terminlarning |



| | |
|---|---|
| | 1. Yapon yozuv tizimlari: Hiragana, Katakana, Kanji yozuvini takomillashtirish<br>2. Asosiy grammatik strukturalar bilan yozma mashqlar<br>3. Sodda gaplar tuzish va ularga ohang berish<br>4. Partikllarni (は、が、を、に、へ、で、と、も) to'g'ri qo'llash<br>5. Sodda gaplardan murakkab gaplarga o'tish (qo'shma gaplar)<br>6. Vaqt, sabab va maqsad bog'lovchilari bilan yozish<br>7. Modal ifodalar: iltimos, ruxsat, ehtimol va farazlarni yozma nutqda ishlatish<br>8. Yozma uslubda sinonim va antonimlardan foydalanish<br>9. Kundalik yozuvlar (日記) va oddiy hisobotlar yozish<br>10.Rasmiy va norasmiy maktublar tuzish (友達への手紙 va ビジネスメール)<br>11.Qisqa hikoya (短い物語) yozish asoslari<br>12.Dialoglarni yozma shaklda berish (会話文の作成)<br>13.Passiv, majburiy va imkoniyat shakllari bilan yozish<br>14.Masdar (〜ために, 〜こと, 〜ように) va qo'shma konstruktsiyalar<br>15.Argumentli matn yozish: fikr bildirish va asoslash (意見文)<br>16.Tavsiflovchi va taqqoslovchi yozuvlar (説明文・比較文)<br>17.Akademik paragraf tuzilishi va bog'lovchi iboralar<br>18.Qisqa esse (小論文) yozish asoslari<br>19.Referat va konspekt tayyorlash<br>20.Obrazli va badiiy tasvirlar yozish (描写文)<br>21.Madaniy mavzularda yozma nutq (yapon urf-odatlari haqida)<br>22.Matnni tahlil qilish va qayta yozish (推敲と編集)<br>23.Yakuniy loyiha: 600–800 so'zli yozma ish tayyorlash<br>24.Loyiha taqdimoti va yozma ishni baholash mezonlari<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:**<br>Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.<br>Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.<br>- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;<br>- amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish; |

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilganl vazifalami o'z vaqtida bajarishi.

**Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash.

1. Hiragana yozuvida tezlik va aniqlikni oshirish mashqlari
2. Katakana yozuvi bilan chet so'zlarni to'g'ri yozish
3. 50 ta asosiy kanjini yozma mashq qilish
4. Kanjilarni radikallari bo'yicha guruhlash va o'rganish
5. Partikllarni farqlash va yozma gaplarda qo'llash
6. Sodda gaplardan murakkab gaplarga o'tish yozma mashqlari
7. Vaqtni bildiruvchi iboralarni yozma matnlarda qo'llash
8. Sabab va maqsadni bildiruvchi tuzilmalarni yozma nutqda ishlatish
9. Norasmiy (くだけた) uslubda kichik matn yozish
10. Rasmiy (丁寧) uslubda kichik matn yozish
11. Sinonim va antonimlardan foydalangan holda gaplarni kengaytirish
12. Lug'atdan samarali foydalanib yangi so'zlarni yozma nutqqa qo'shish
13. Kundalik yozuvlar yaratish: 5 kunlik 日記
14. Do'stga qisqa xat yozish
15. Rasmiy maktub (メール) yozish – so'rovnoma yoki rahmat bildiruvchi xat
16. Hikoya (物語) boshlanishini yozish: tasvir va voqea kirish qismi
17. Hikoya davom etishi va yakunini yozish
18. Dialog matni yaratish (会話文の書き方)
19. Tavsiflovchi matn yozish – odam, joy, voqea tasviri
20. Taqqoslovchi matn yozish – ikki narsani solishtirish
21. Fikr bildiruvchi kichik matn yozish (意見文)
22. Asoslovchi (dalillovchi) matn yozish – "Nega bu fikrdaman?"
23. Rasmga asoslanib 200 so'zli matn yozish



24. Madaniy mavzuda 250 so'zli yozma matn tayyorlash
25. Akademik paragrafning kirish qismi yozish
26. Akademik paragrafning asosiy qismi yozish
27. Akademik paragrafning xulosa qismini yozish
28. Qisqa esse yozish – ijobiy va salbiy fikrlarni taqqoslash
29. Referat rejasini tuzish va matndan asosiy g'oyalarni ajratish
30. Konspekt yozish – maqolani qisqacha qayta ifodalash
31. Matnni tahlil qilish va qayta yozish mashqlari
32. Imlo va uslubiy xatolarni tuzatish mashqlari
33. Badiiy tasvir yaratish – fasl, tabiat yoki shahar manzarasi
34. Obrazli matn yozish – his-tuyg'ular orqali tasvirlash
35. Yakuniy testlarga tayyorgarlik
36. Yakuniy testlarga tayyorgarlik

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar o'quv dasturida tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'zlashtirish, ularni tahlil qilish tavsiya etiladi.

**3. IV. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar**

**Bilimlar**

1. Yapon tilining yozma uslublari, janrlari va stilistik xususiyatlarini biladi.
2. Hiragana, Katakana va Kanji yozuv tizimlaridan yozma matnda mukammal foydalanishni o'zlashtiradi.
3. Grammatik konstruktsiyalar, bog'lovchi iboralar va uslubiy vositalarni qo'llash qoidalarini biladi.
4. Akademik va rasmiy yozuv standartlarini tushunadi.

**Ko'nikmalar**

5. Turli janrlarda (maktub, kundalik, esse, hisobot, hikoya) matn yozish ko'nikmalariga ega bo'ladi.
6. Matnlarni izchil tuzish, tahlil qilish, tahrirlash va qayta ishlashni biladi.
7. O'z fikrini yozma shaklda mantiqiy va tushunarli ifodalashni o'zlashtiradi.
8. Yapon tilida yozma nutqda uslubiy noziklikl arni qo'llay oladi.

Kompetensiyalar:

9. Yozma ishlarni mustaqil ravishda bajarish va baholash malakasiga ega bo'ladi.
10. Akademik va ijodiy yozuvlarda o'z g'oyalarini asoslash va izohlash qobiliyatini namoyon qiladi.
11. Yapon tilida 600–800 so'zli murakkab yozma matn tayyorlay oladi.
12. O'z yozuvini madaniy va stilistik me'yorlarga mos ravishda tahrirlay oladi.